

MILLIY VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA DAROMADLARNI TAN OLISH XUSUSIYATLARI

Obidov Raxmonali.Rasulovich
ISFT instituti, i.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda daromadlar shakllanishining ilmiy-nazariy asoslari, buxgalteriya hisobidagi o'rni, tarifi va tavsifini xamda turli olimlarning daromadlar tug'risidagi qarashlari, daromadlarini shakllanish manbalari va ularning asosiy jihatlari bayon etilgan. Shu bilan birga takomillashtirish yo'llari ko'rib chiqildi. Mazkur tezisdagi xalqaro amaliyotda va milliy hisobda daromadlarni tan olish usullari, baholash mezonlari, o'ziga xos xususiyatlari va ahamiyatlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: daromad, tushum, sof foyda, xarajat, majburiyat, nazorat, qoplash huquqi, debitor qarzlari, kassa, naqd pul mablag'lari, baholash usullari, natijalar usuli, resurslar usuli, shartnoma bahosi.

Аннотация: В диссертации рассмотрены научно-теоретические основы формирования доходов в хозяйствующих субъектах, их роль в бухгалтерском учете, их тарификация и описание, а также взгляды различных ученых на формирование доходов, источники формирования доходов и их основные аспекты. В то же время рассматривались пути улучшения. В диссертации описываются методы признания доходов в международной практике и в национальных счетах, критерии оценки, особенности и значимость.

Ключевые слова: доход, выручка, чистая прибыль, расход, обязательство, контроль, право возмещения, дебиторская задолженность, денежные средства, эквиваленты денежных средств, методы оценки, метод результатов, метод ресурсов, контрактное ценообразование.

Abstract: This thesis describes the scientific and theoretical foundations of income formation in business entities, their role in accounting, tariff and description, as well as the views of various scientists on income, sources of income formation and their main aspects. At the same time, ways of improvement were considered. This thesis reveals the methods of income recognition, assessment criteria, specific features and significance in international practice and national accounting.

Keywords: income, revenue, net profit, expense, obligation, control, right of compensation, receivables, cash, cash equivalents, valuation methods, results method, resource method, contract price.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizning barcha tarmoqlarda va sohalarda katta islohatlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birgalikda buxgalteriya hisobini isloh qilish bo'yicha muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevralda PQ-4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" Qarori shular jumlasidandir. Ushbu qarorga muvofiq buxgalteriya

hisobi va audit sohasidagi mutaxassislarni tayyorlash ishlarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, buxgalteriya hisobi va auditning xalqaro tashkilotlari bilan hamkorlik qilish, standartlarimizni xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilish, buxgalteriya hisobi va audit fanlarini jahon darajasiga olib chiqish vazifalari yuklatildi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) xalqaro professional tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan hujjatlar majmuasidan iborat. Ularni o'rganish va joriy qilish har bir standartni chuqur tahlil qilishni va ularning qo'llanilishi bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etadi. Bizning fikrimizcha, standartlarni o'rganish va joriy qilishni ma'lum bir ketma-ketlikda amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Chunki, konseptual ahamiyat kasb etadigan asosiy ob'ektlarni hisob olish prinsiplarni belgilab beradigan standartlarni bilish boshqa standartlar bo'yicha hisob siyosatini ishlab chiqish va joriy etishda qo'l keladi.

Shu bois, ushbu standart talablariga muvofiq hisob-kitoblarni tashkil etish, moliyaviy hisobotlarda daromadlar va foyda to'g'risida shaffof axborotlarni aks ettirish, xalqaro investorlarga ularga tushunarli bo'lgan vositalarda, ya'ni eng sinalgan va samarali usul hamda uslublar, tan olish va baholash mezonlari, xalqaro qoida va prinsiplardan foydalangan holda kompaniyaning daromadlari, foydasi va uning taqsimoti hamda foydadagi ulushi to'g'risidagi ishonchli, uyg'un va taqqoslanuvchi moliyaviy axborotlarni taqdim etish metodologiyasini joriy etish barcha mamlakatlar, ayniqsa MHXSlarni birinchi marta qo'llayotgan mamlakatlar uchun o'ta dolzarb masaladir.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Mamlakatimizda xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning daromadlarni hisobga olishda 2 son BHMS "Asosiy faoliyatdan olingan daromadlar" standarti hamda "Xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi" to'g'risidagi Nizomlardan boshqa xujjatlardan foydalanib kelinmoqda. Xujalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini yuritishda va daromadlar va xarajatlarni hisobga olishda xalqaro mezonlarga muvofiq keladigan tartibi ishlab chiqildi. Ushbu standartlarga muvofiq daromadlarni hisobini MHXSlarga muvofiqlashtirish borasida muayyan natijalarga erishildi [5].

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda, korxona daromadlarining iqtisodiy mazmuni, tasniflanishi, tarkibi, shakllanishi va taqsimlanish tartibi me'yoriy hujjatlarda hamda iqtisodiy adabiyotlarda turlicha yoritilmoqda. Juda ko'pchilik MDH davlatlari va mamlakatimiz olimlari korxona daromadini mahsulot sotishdan tushgan pul tushumi sifatida ta'riflaydilar. Boshqa bir guruh iqtisodchi – olimlar daromadni korxonada yaratilgan qo'shimcha qiymat sifatida talqin qiladilar. Masalan, Yu.Dodoboiev va A.Xudoyberdievlar korxona daromadlariga quyidagicha ta'rif beradilar: «Korxonaning yalpi daromadi moddiy 85 xarajatlar chiqarib tashlangandan so'ng ish haqi va foydani o'z ichiga olgan mahsulot sotishdan tushgan tushumdir». E.Shavqiev korxona daromadiga «... ma'lum bir davrda butunlay yangitdan yaratilgan qiymatdir», deb ta'rif beradi. Shunga o'xshash ta'riflar bir qator Rossiyalik olimlarning ishlarida ham uchraydi. Qayd etilgan ta'riflarning har biri ma'lum munozarali jihatlariga ega. Yashil iqtisodiyot sharoitida korxonalar

nafaqat mahsulot ishlab chiqarish va ularni sotish bilan, balki investitsion va boshqa faoliyat turlari bilan ham shug'ullanadilar va ushbu faoliyatlardan sezilarli darajada daromad oladilar. Bunday sharoitda, korxona yalpi daromadlarini birinchi guruh olimlar ta'kidlaganlaridek, faqatgina mahsulot sotishdan tushgan pul tushumi sifatida ta'riflash, uning tarkibini to'liq ifodalay olmaydi. Ikkinchi guruh olimlar tomonidan korxona daromadiga berilgan ta'riflarida uni miqdor jihatidan, ishlab chiqarishda bevosita qatnashgan ishchilarning ish haqisi va korxona yalpi foydasi yig'indisiga, ya'ni ma'lum davr ichida korxonada yangidan yaratilgan qiymatga teng, deb qaraydilar. Bizningcha, daromad, tushum va foyda tushunchalari bir – biri bilan bog'liq tushunchalar bo'lsada, ularning har biri korxona xo'jalik faoliyati natijalarining alohida jihatlarini ifodalaydi. Tushum tushunchasi, odatda, korxona asosiy faoliyatining natijasi hisoblangan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan olingan daromadlarni ifodalaydi. Daromad, mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan tashqari korxonaning boshqa faoliyatlaridan ham olinishi mumkin. Foyda esa, daromadning ushbu daromadni olish uchun qilingan xarajatlardan ortgan qismini ifodalaydi. Ushbu uchala ko'rsatkichning miqdori bo'yicha bir biri bilan bog'liqligini quyidagicha ifodalash mumkin: $Daromad \geq Tushum \geq Foyda$ Daromad miqdori hamma vaqt tushum va foydaga nisbatan katta bo'ladi. Korxona faqatgina mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan daromad olgan davrlarda daromad bilan tushum bir-biriga miqdoran teng bo'lishi mumkin. Foyda eng oxirgi ko'rsatkich bo'lib, daromad va tushum ko'rsatkichlaridan xarajatlarni ayirish orqali aniqlanadi. Alohida faoliyat turi uchun foyda hisoblanayotganda, agar ushbu faoliyatdan daromad yoki tushumga xarajatsiz erishilgan bo'lsa, foyda miqdoran shu faoliyatdan olingan daromad yoki tushumga teng bo'lishi mumkin. K.B.Urazov daromadga ta'rif berishda uning negizida yotuvchi tushumlarni nisbatan to'la va aniqroq sanab o'tgan – «Korxonalarining yalpi daromadi - bu mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olinadigan sof tushum, xarid tovarlar, materiallar va boshqa uzoq muddatli aktivlar (mehnat qurollari va vositalari, kapital va moliyaviy investitsiyalar, nomoddiy aktivlar)ni sotishdan olingan ustama haqlar, aktivlarni investitsiya sifatida kiritishdan foizlar, dividendlar va royalti, majburiyatlarni voz kechilishi, hisobda bo'lmagan aktivlarni kirim qilinishi, mulkni bepul olinishi sifatida tariflanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Milliy va xalqaro standartlar asosida daromadlarni tan olish xususiyatlarini tadqiq qilishda ilmiy va o'quv-uslubiy adabiyotlar tahlili, pedagogik kuzatuv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy hisobotlarida va amaliyotda eng ko'p uchraydigan hamda keng qo'llaniladigan tushunchalardan biri bo'lib «daromad» hisoblanadi. Chunonchi, iqtisodiyot nazariyasida daromad iqtisodiy kategoriya, amaliy faoliyatda esa u xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining muhim ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Buxgalteriya hisobi nazariyasi va amaliyotida daromad uning eng muhim ob'ektlaridan biridir. Yashil iqtisodiyotga urg'u berilayotgan bugungi kunda iqtisodiyotning barcha ishtirokchilari (davlat, korxonalar, xususiy tadbirkorlar, uy

xo'jaligi) o'z faoliyatlaridan ko'proq daromad olishga intiladilar. Daromad har qanday tadbirkorlikni uzluksiz rivojlanishining eng asosiy omillaridan biridir. Xo'sh, daromad o'zi nima, u o'zida nimalarni aks ettiradi? Hozirgi o'zbek tili faol so'zlarining izohli lug'atida daromad so'zi quyidagicha izohlangan:

Daromad - keng ma'noda kirim bo'lgan har qanday pul mablag'lari yoki pul qiymatiga ega bo'lgan moddiy boyliklarni olish, iqtisodiy subyekt o'z faoliyati natijasiga ko'ra oladigan pul va tovar — moddiy tushum. Daromad pul va moddiy shaklga ega bo'lib, ularning yig'indisi jami daromadni hosil qiladi. Daromad egalik nuqtai nazaridan aholi daromadi, korxona (korporativ) daromadi va davlat daromadiga bo'linadi. Aholiga tegadigan daromad ish haqi, foyda, foiz, renta, dividend shakllariga ega.

Daromadlarni tan olish Daromadlar, kelgusi iqtisodiy nafning aktiv ko'payishi yoki majburiyat kamayishi bilan bog'liq bo'lgan o'sishi yuzaga kelganda va ushbu o'sish ishonchli baholanishi mumkin bo'lganida, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda tan olinadi. Bu degani, amalda, daromadning tan olinishi aktivlar ko'payishi yoki majburiyatlarning kamayishini tan olish bilan bir vaqtda sodir bo'lishini anglatadi (masalan, mahsulotlar yoki xizmatlarni sotish natijasida aktivlarning sof ko'payishi yoki qarzni to'lashdan voz kechish natijasida majburiyatlarning kamayishi).

Xarajatlarni tan olish Xarajatlar, kelgusi iqtisodiy naf aktivning kamayishi yoki majburiyatning ko'payishi bilan bog'liq holda kamayganida va bunday kamayish ishonchli baholanishi mumkin bo'lganda, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda tan olinadi. Bu degani, amalda, xarajatning tan olinishi, aktivlar kamayishi yoki majburiyatlarning ko'payishini tan olish bilan bir vaqtda sodir bo'lishini anglatadi (masalan, xodimlarga to'lanadigan ish haqini yoki asbob-uskunaning eskirishini hisoblash).

Daromadlarni tan olish, O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi va soliq solish hisoblab yozish usuli asosida amalga oshiriladi. Hisoblab yozish usuli deganda daromadlar va xarajatlar pul mablag'larini olish yoki to'lash asosida emas, balki ular kelib tushishi yoki paydo bo'lishiga qarab buxgalteriya hisobida hisobga olinishi tushuniladi [1].

Daromadlar va soliqlar xamda majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish ushbu daromadlar bo'yicha chegirmalar, to'lovlar to'langan vaqt va pul kelib tushgan sanadan qat'iy nazar, ular talluqli bo'lgan hisobot davrida aks ettiriladi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) aholiga naqd pulda realizatsiya qilingan hollarda nazorat kassa mashinasining fiskal cheki yoki terminal cheki hisob-faktura o'rnini bosadi. Bunda hisobvara-q-faktura tovarlar (ishlar, xizmatlar) realizatsiya qilish oboroti amalga oshirilgan sanada yoziladi. Ya'ni tovarlar o'sha paytda realizatsiya qilingan bo'lsa, xaridorga nazorat kassa mashinasining fiskal cheki yoki terminal cheki berilayotganda daromad tan olinadi.

Klub kartasi-sportzal yoki suv havzasiga oylik abonementga o'xshash. Uni olganlik uchun to'lov esa, muayyan davr mobaynida ko'rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan to'lov sifatida aks ettiriladi. Jismoniy shaxsdan muayyan xizmatlar

uchun oldindan to'lov qabul qilingan bo'lsa, bunda berilgan nazorat kassa mashinasining fiskal chek yoki savdo terminali cheki daromadni tan olish uchun asos hisoblanmaydi, sababi xizmatlar hali ko'rsatilmagan.

Klub kartalari uchun to'lov qabul qilish usullaridan qat'iy nazar, kartalar amal qiladigan butun davr mobaynida daromadlarni bir maromda tan olish va har oyda hisobvara-faktura yozish zarur.

Shartnoma shartlariga ko'ra, u bekor qilingan yoki klub a'zolidan ketgan taqdirda summani foydalanilmagan qismi qaytarilmasa, klub uchun bu summa boshqa daromad hisoblanadi.

Bunday hollarda shartnoma bekor qilingan sanada, mijoz ketganda esa-klub kartasi bo'yicha xizmatlarni taqdim etish muddati tugagan sanada daromad tan olinadi.

Xulosa. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiq korxonalar daromadlarini faoliyat turiga, tegishli davriga va soliqqa tortiladigan bazaga munosabatiga ko'ra tasniflash hamda har bir tasnif belgisi bo'yicha ajratilgan guruhlariga biz yoritib bergan daromad elementlarini kiritish daromadlarning mazmun-mohiyatiga mos ravishda hisobga olinishiga, boshqaruvga taqdim etilayotgan axborotlar sifatining oshishiga, shuningdek, ulardan foydalanish jarayonining osonlashuviga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi 2019 yil 30 dekabrda O'RQ-599-son Qonuni bilan tasdiqlangan.

2. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni (yangi tahriri). 2016 yil 13 aprelda O'RQ-404-son Qonuni bilan tasdiqlangan.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevralda "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ-4611-son qarori.

4. Kalonov M.B. Korxonalarda daromadlar va xarajatlar hisobi hamda tahlili metodologiyasini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. . T.:2019.